

BOSHLANG'ICH SINFL O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISHDA TARBIYADAGI IJOBIY VA SALBIY HISLATLAR

*Namangan viloyati chortoq tumani 7-umumiyn o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich
sinfo qituvchisi*

Turdiboyeva Nilufar Sharibboyevna

***Tarbiya biz uchun yo hayot-yo yo
mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.***

A.Avlonyi

***Annotatsiya: bu maqolada bolalarni kreativ fikrlashga o'rgatish hamda
ularning tarbiyasidagi hislatlar xususida so'z boradi.***

Kalit so'zlar: kreativ, tarbiya, ta'lim, salohiyat, xulq, g'azab.

Har bir millat va xalqning ertangi kuni va kelajagini belgilovchi yo'li va ishonchli strategiyasi bo'ladi. Ko'p mamlakatlarga nazar so'ladigan bo'lsak, asosan ular yoshlar va kelajak avlodlarga investitsiyalarni jalg etishadi. Xuddi shu mamlakatlar ro'yxatida bizning yurtimiz ham bor desam, adashmagan bo'laman. Yurtimizdan ko'p buyuk allomalar yetishib chiqqani hech kimga sir emas. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda nega hozir va keyin ham allomalar chiqmasligi kerak? Bugun shunday buyuk allomalar yurtidan nima uchun ajdodlarga mos avlodlar chiqmayapti? Biz rivojlanayotgan "Yangi O'zbekiston" yosh avlodlariga qanday ta'lim va tarbiya bermog'imiz lozim?! Har bir gulning bir isi, har mevaning bir ta'mi va mazasi bo'ladi. Kelajak avlodlarning ta'mi va mazasi - bu ta'lim va tarbiyadir. Buni tajriba sohiblarigina amalga oshirishlari kerakdir. Bunday shaxslar qatorida ota-onal, ustoz-murabbiylar va mahalla muhim o'rinn tutadi. Ta'lim va tarbiya qushning ikki qanotiga o'xshashi bejizga emasdir. Kelajak avlodlarning yuksak parvozini ko'rishni istasak, ta'lim va tarbiyaning salmog'ini oshirmog'imiz kerak. Bunday yuksak vazifa albatta, matonatli o'qituvchi-pedagoglar zimmasiga yuklanadi. Tarbiya qiluvchilar, tabibga o'xshaydilar. Tabib hastaning badaniga

davo topgani kabi, tarbiyalovchi, bolaning vujudiga “yaxshi xulq”, “ta’lim va tarbiya”, “poklik”, “shijoat”, “qanoat” va juda ko’plab go’zal xulqlar orqali ularni tarbiya etishi zarurdir. Rivojlanayotgan ta’lim jarayoni bilan bir qatorda yoshlarning axloqiga ta’sir etuvchi omillar ham o’z natijasini ko’rsatib kelmoqda. Bu xususiyatlarga juda ko’plab misollar keltirish mumkin. Yoshlar o’rtasida ta’limga bo’lgan qiziqishning pastligi, vaqtlarini bilim olishdan ko’ra, internetdagi qiziqarli ma’lumotlar, video roliklar ko’rishni afzal biladilar. Bunday illatlarni yo’q qilishimiz uchun, O’qituvchi pedagoglarimizga murojat qilishimiz zaruriy hodisadir:

O’qituvchi pedagoglarning mahoratlarini oshirish;

Zamon talabiga mos ravishda metodlar ishlab chiqish;

Pedagogik salohiyatlarini yana takkomillashtirish;

Yoshlarga zaruriy bo’lgan bilimlarni eng zamonaviy va keng uslubda yetkazish;

Ijtimoiy himoya muhtoj bolalarni ta’limga jalg etish;

Bolalar xulqlarini rivojlantirishda maktabgacha ta’lim muassasalarining o’rnini oshirish;

Hayot amaliyotida olgan bilimlarini qo’llay olishda ularga mukammal ta’lim va tarbiya berishdir.

Ta’lim va tarbiyani to’g’ri yo’naltirish uchun, aynan yoshlarning qanday hislatlar bilan qamrab olish muhim o’rein tutadi. Kelajak yoshlarning binosi go’zal va chiroyli bo’lishiga ta’lim va tarbiyaning ta’siri kuchlidir. Ba’zilar ta’lim tarbiyaga yoki buning aksi, tarbiyaning ta’limga aloqasi yo’q, inson asl yaratilishida qanday bo’lsa doim shunday tabiatda bo’ladi, degan fikrda qoladilar. Lekin bunday fikrlash to’g’ri emasdir.

Bugungi yoshlarning ta’lim va tarbiya zamonini ikki qismga ajratish mumkin:

1.O’stiruvchi xulqlar

2. Kuydiruvchi xulqlar

O’stiruvchi xulqlar deb nomlashimga sabab, har bir nihol o’sib, samoga bo’y cho’zar ekan, o’stiruvchi unga kerakli ozuqalarni berishi kerakdir. Kuydiruvchi

xulqlar esa niholning o'sishiga ta'sir etib, uni butkul yo'q qilishi mumkin. Yoshlarning yuksak cho'qqilar va marralarni egallahshlarida quydagi xulqlar hamroh bo'ladi:

- 1) Badan tarbiyasi – badan salomat va quvvatli bo'lishi, chunki o'qimoq, o'r ganmoq va o'rgatmoq uchun insonga sog'lom tana lozimdir;
- 2) Fikr tarbiyasi – fikr insoning dunyoqarashi va komillik darajasida o'z natijasini ko'rsatadi;
- 3) Axloq tarbiyasi – axloq insoning jamiyat hayotida o'z o'rnini topishda eng muhim omil hisoblanadi. Bu ulkan vazifani muallimlarimiz o'z zimmalariga olishlari zarurdir. Chunki, dars oluvchi-biluvchidir, tarbiya beruvchi-amal qiluvchidir.
- 4) Yaxshi xulq – yaxshi xulq bilan inson o'z jismi va ichki olamini tarbiya etadi: diyonat, nazokat, g'ayrat, qanoat, iffat, hayo, hilm, sabr, vijdon, itoat, ro'stgo'ylik, sadoqat, muhabbat, hurmat kabilardir. Bu yaxshi xulqlarni yoshlar ongiga singdirish uchun ota-onasiga muallimlarimizning himatli nasihatlari va amaliy o'rnaklari bilan amalga oshirish lozimdir;
- 5) Aql tarbiyasi – inson va hayvon o'rtasidagi farq aql va so'zdadir. Jism ishlovchi, aql esa boshlovchidir. Agar aqlning qo'li nafsnинг jilovini ushlashni o'rgatilsa, yomon yo'llarga kirishdan saqlaydi. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'ladi, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'p bo'lsa, shuncha qimmatbaho bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan hislatlarni yana davom etirish mumkin. Bu ro'yxat davomini o'qituvchi-pedagoglarimiz o'z mahoratlari bilan sayqallaydilar. Bu xususiyatlarni inkor etuvchi xulqlar ham mavjud. Bugun yoshlar orasida bunday xulq-atvor afsuski yo'q deya olmaymiz. Ta'kidlab o'tganimizdek ularni "Kuydiruvchi xulqlar" deb nomladik. Ularga quydagilarni misol keltirishimiz mumkin:

- 1) G'azab – g'azabning avvali kuch-quvvat, oxiri nadomatdir. Bu xulqni davosi toplimasa, u insonni xarob qiladi. Bugungi kunda yoshlar o'rtasidagi

qonunbuzarliklar, huquqbuzarliklar, tengdoshlarini huquqlarini poymol qilish holatlarini guvohi bo'lamiz;

2) Jaholat – jaholat deb o'qimaydigan, bilimsiz, hech narsani tushunmaydigan o'z qobig'iga o'zi o'ralgan insonlarga nisbatan ishlataladi. Buni hislat deymizmi yoki illat oxiri johillika yetaklaydi;

3) Dangasalik – bu illat insoning orzu-maqsad qilishdan to'xtib qo'yadi;

4) Manmanlik – bu illat insonda mutakkabirlik va o'zgalarni hurmat qilmaslik moyili o'stiradi. Yoshlar o'rtasida ustozlar va ota-onalar hamda tengdoshlarini hurmat qilmaslik, menlik hislatini tobora yuksak cho'qiga chiqqanini ko'ramiz;

5) Adovat – atrofdagi insonlarga xusumat va dushmanlik nazari bilan qarash. Dildagi adovat temirning zangiga o'xshaydi, zang temirni yegani kabi adovat qalbni azobga soladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolalarning ijobiy hislatlarini rivojlantirishda avvalo maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyachilariga bog'liq holatdir. Chunki meva beruvchi daraxt avval nihol bo'ladi, nihol parvarishi esa tarbiyachiga chambarchas bog'liq hodisadir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq
2. www.arxiv.uz
3. A.Beruniy bolalar psixologiyasi
4. www.library.uz